

## OTMDA SIFATGA QARATILGAN KADRLAR TAYYORLASH MEXANIZMLARI

*N.O.Musaev*

*ORIENTAL UNIVERSITET*

*“Ta’lim menejmenti” yo’nalishi magistri*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, OTMda sifatga qaratilgan kadrlar tayyorlashning hozirgi holatidagi kamchiliklari qayd etiladi. Ularni bartaraf etishga mo’ljallangan va biz taklif etayotgan yangi mexanizm sifatida o’quv jarayonidagi bosqichlar aro quyidan yuqori tamon majburiy qisqarib borishni ta’minlovchi halol konkurs raqobat mexanizmini o’rnatish nazarda tutiladi.

**Kalit soʻzlar:** boshlangʻich nuqta, OTM, ratsional tizim, dolzarb muammo, raqobatli bozor sharoiti, yangi muhit, islohot bosqichi, amaliyot.

**Ключевые слова:** отправная точка, ВУЗ, рациональная система, актуальная проблема, конкурентная рыночная конъюнктура, новая среда, этап реформ, практика.

**Key words:** starting point, university, rational system, current problem, competitive market conditions, new environment, stage of reforms, practice.

Yangi O‘zbekistonning kelajagi bugundan boshlanadi. Buxorolik bobokalon buyuk mutasavvif shayx hazrat Xoja Muhammad Orif ar-Revgariv (vaf.1259m.y) janoblari aytganlaridek, har bir ishga kirishishdan avval, uning ilmni yaxshi bilmoq kerak, soʻngra bilgan ilmga amal qilmoq kerak va bu amalni ixlos va mahabbat bilan bajarmoq kerak. Har qanday taraqqiyot uchun bu fikr boshlangʻich nuqta va asos hamdir. Ilmiy asosdan boshqaga tayangan har qanday harakat besamar tugashi muqarrar. Shuning uchun vatanimiz kelajagini ilmiy asosga yoʻnaltirgan rahbariyatimiz ichki siyosatini har qancha olqishlasak, oz. Demak, taraqqiyotimiz poydevori boʻlgan tarbiya va ta'limga darz yetmasligi uchun, avvalo, tarbiyani yot gʻoyalardan poklagach, ta'limni asl fundamental bilimlar va eng ratsional tizim asosiga qurmoq lozim boʻladi.

“...vrach emas, glavvrach boʻlaman!...”, “...hoʻkiz emas, bu – diplom, hoʻkiz poytaxtda oʻqiyapti...” kabi “hazil, ha...zil”larda ifodalangan hamda kirim<sup>1</sup> ni deb, krizisga yoʻliqqan oʻtish davri ta'lim tizimi kelajagimiz uchun mutlaqo yaroqsiz, uni endilikda tamomila yangi asosga qurmoq lozim. Bugungi kun ta'lim menejamenti oldidagi **dolzarb muammo** mana shunda.

Korruptsiyani vujudga keltiruvchi monopoliyalardan xoli boʻlgan, halol raqobatli bozor sharoitida oʻzining munosib oʻrnini va bahosini topuvchi zarur koʻnikma va yetarli mahorat sifatlariga ega boʻlgan mutaxasislarni tayyorlash bugungi kun ta'lim menejementining **asosiy vazifasi**dir. Ushbu vazifani bajarish uchun, avvalo, mavjud holat va vaziyatda oxirgi 10 yillikda Respublikamiz yetakchi OTM hisobotlarini sidqdildan oʻrganish, faktlarni boricha, roʻy rost tahlildan oʻtkazish lozim boʻladi.

<sup>1</sup> superkontraktlar

Taxminlarga ko'ra, talabalikka qabul qilingan bakalavrlarning aksar qismi (97/98) foyizi 4 yildan so'ng bitirib, bakalavr diplomini hayotga yo'llanma sifatida qabul qilib olishgan. Bitira olmaganlarining sababi fanlarni o'zlashtira olmagan emas, balki boshqa turli sabablarga taalluqlidir. Ya'ni o'qishga kirganlarning barchasi deyarli bitirib chiqqan, desa bo'ladi. Bu nima degani?! Bu shu deganiki, maktabdagi har qanday "2chi" ni super kontrakt orqali talabalar safiga qo'shsang, undan muayyan muddat o'tgach, diplomli mutaxassisga ega bo'lasan. Bunday sharoitda astoydil (az tahti dil), ya'ni dilining tub-tubidan o'qimoqchi bo'lib kelgan o'smir ham o'qimaslikka o'tadi. Ya'ni muhit<sup>2</sup> o'z hukmini o'tkazadi. Demak, yangi muhit yaratilishi lozim. Bu muhit qanday bo'ladi? Javobni menejementdan kutamiz. Endilikdagi zarur muhit mavjud tizim asosida bosqichma bosqich, tadrijiy ravishda planli reja asosida tuzilgan (reforma) islohotlar orqali amalga oshadi. Masalan, REFORMA – ISLOHOTLAR quyidagicha bo'lishi mumkin:

**Islohotning 1chi bosqichi. Variant "A".** Bu OTM reytingini va bakalavr kadrlarning malakaviy sifatini oshiruvchi mexanizmlardan birini joriy etishdir. U guruhdagi talabalar kvotasining semestrlar aro qisqarib borishini nazarda tutadi. Ya'ni, "Qancha talaba kirs, shuncha talabaning hammasi 4 yildan so'ng bitiradi", deyilgan fikrdan voz kechiladi. Uning o'rniga 4 yildan so'ng 100 talabadan qanchasi bitira oladi degan tushuncha to'g'risida fikr yuritish o'rinli bo'ladi. Masalan, 100 talaba 20 tadan 5 guruh bo'lsa, va har bir guruhdagi 20 talabadan 4 yillik o'qish davomidagi 8 semestrning har bir imtihonida 1 talabadan, jami 8 talaba tushirib qoldirilsa, har bir guruhdan 12 talabagina mutaxassis bo'lib chiqishi mumkin bo'ladi. 5 guruhga 4 yil oldin qabul qilingan 100 ta talabadan endi faqat 60 tasigina bitirib diplomga ega bo'ladi. Bitiruvchilarning soni 60 tadan kam bo'lishi mumkin, lekin 60 tadan ortmasligi lozim. Barcha imtihonlardan o'ta olmaganlar keyingi yil imtihonida qayta imtihon – konkursdan o'tishlari mumkin bo'ladi.

Muayyan bosqichda tahsil olib, keyingi bosqichga o'ta olmagan talabaga keyingi (yilgi yoki keyingi oydagi uyushtirilajak) imtihonlarda qatnashish huquqini beruvchi sertifikat beriladi. Bunday sertifikatli talabalar keyingi yil yoki, to'g'rirog'i, keyingi davrada imtihon topshiruvchi guruhdagilarga qo'shimcha raqobatchilarni tashkil qiladiki, raqobatchilar soni tobora ortib, borgan sari ushbu OTMda keyingi bosqichga o'tish qiyinlashib boradi.

OTM reytingini va bakalavr kadrlarning malakaviy sifatini oshiruvchi mexanizmlardan biri Guruhdagi talabalar kvotasining semestrlar aro qisqarib borishi raqamlarda quyidagicha ifodalanishi mumkin:

- 8 semestrqa qabul kvotasi 13ta, bitirib diplom olishi mumkin 12ta
- 7 semestrqa qabul kvotasi 14ta, keyingi semestrqa o'tishi mumkin 13ta
- 6 semestrqa qabul kvotasi 15ta, keyingi semestrqa o'tishi mumkin 14ta
- 5 semestrqa qabul kvotasi 16ta, keyingi semestrqa o'tishi mumkin 15ta
- 4 semestrqa qabul kvotasi 17ta, keyingi semestrqa o'tishi mumkin 16ta

<sup>2</sup> Falastindagi "O'lik dengiz"ga tushgan har bir jonvor muhit ta'sirida tuzga aylanar ekan.

3 semestrda qabul kvotasi 18ta, keyingi semestrda o'tishi mumkin 17ta

2 semestrda qabul kvotasi 19ta, keyingi semestrda o'tishi mumkin 18ta

1 semestrda qabul kvotasi 20ta, keyingi semestrda o'tishi mumkin 19ta

Bu usulda o'qitishni bitta guruhda tashkil qilib ko'rish bir semestrdayoq o'z natijasini beradi, deb umid qilamiz.

Muayyan fan Dasturidagi har bir qism, ya'ni darslikda "Blok" yoki "Dars" deb ataluvchi har bir bo'lak bo'yicha olib borilajak oxirgi mashg'ulotda o'rganilgan shu qism bo'yicha sinov yoki imtihoncha o'tkaziladi. Bir semestr 18 hafta bo'lgach, juft haftalardagi oxirgi mashg'ulot keyingi mavzuga o'tish uchun "ruxsat"<sup>3</sup> imtihonchasidir. "ruxsat" Mavzuning barcha mashqlarini bajargan talabagagina beriladi.

Keyingi semestrda o'tish imtihonlariga barcha (9) mavzuning har birini to'la o'zlashtirgani haqida fan o'qituvchisi tomonidan "ruxsat" belgisi qo'yilgan kartali talabagagina qo'yilishi mumkin. Imtihonlar har bir mavzu bo'yicha kamida 3 tadan (jami 27 ta) yozma savolga talaba eksrompt og'zaki javob aytishi lozim. Javoblardan birontasining noto'g'ri bo'lishi keyingi mavzuga ruxsat bermaganidek, keyingi semestr uchun ham monelik qiladi.

**Variant "B"**. 8 semestrning har bir bosqichiga mo'ljallangan har bir fanning muayyan Dasturi bo'lib, uning bloklari bo'yicha tuzilib OTM portaliga joylashtirilgan "onlayn video" ma'ruza darslarini talabgor istagan mahalda, xohlagan joyda, istaganicha, tushungun qadar tinglashi, ko'rishi mumkin bo'ladi. Ma'ruzalar so'ngiga ilova qilingan har bir mashqni bajarish talaba uchun majburiydir. Ularni kim qancha vaqtda bajarsa, o'zi biladi. Har haftaning muayyan kunida doimiy uyushtirilib turuvchi imtihonlarda talaba fanning shu qismini bilgani va keyingi dars yoki bloki uchun "ruxsat" oladi. Shu tariqa talaba shu fanni 1 yoki 2 yildayoq bitirishi yoxud 10 yilda ham bitira olmasligi mumkin bo'ladi.

**Islohotning 2chi bosqichi.** Islohotning 2chi bosqichida endi OTMni yoki uning istalgan bosqichini bitiruvchilar sonini cheklovchi kvotalar bo'lmaydi. OTMning barcha bosqichlari eshiklari talabalar va barcha talabgorlar uchun ochiq bo'ladi. Muayyan fanning OTMda qabul qilingan Dasturi bo'yicha o'z uyida vaqt topib, "onlayn" darslarni tinglab, tayyorlanib o'zlashtirgan, o'z bilimiga ishonch hosil qilgan talabgor ham endi OTMlarda DTM kabi har bir fan bo'yicha tashkil etilgan va doimiy faoliyat ko'rsatuvchi imtihon komissiyalariga ariza berib, o'zidan qaysi fanning qaysi bandi bo'yicha imtihon olishlarini so'raydi va o'tsa, o'sha fanning o'sha bandini bilishi haqida munosib (sertifikat) guvohnomasini oladi. Mazkur fan bo'yicha yetarli miqdordagi guvnomalarni yiqqan talabaga shu "fanning muayyan bosqichini biladi" degan guvohnoma beriladi. OTM rejasiga ko'ra zarur deb hisoblangan fanlar majmuasi bo'yicha guvohnomalarni qo'lga kiritib ulgurigan talabgorga "diplom" beriladi. Bu diplomning bahosi ishlab

<sup>3</sup> Bilimgan talabaga "bildi" deb keyingi bosqich imtihonlarida qatnashish uchun talabaga "ruxsat" bergan ustoz - muallim bilan alohida hisob kitob qilinadi.

chiqarishda amalda bilinadi. OTM reytingi va kadrlarining qadrini oxir oqibatda amaliyot aniqlaydi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, o'qish bu o'q ishdur. O'qish dargohi saylgoh emas. O'qish mashaqqatlar maydonidir. O'qish sinovlar maydonidir. O'qishni bitirib chiqish faqat uning mashaqqatlarini yenga olganlar, yiqilmaganlarning nasibi bo'lmog'i kerak.